

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHI

Sharopov Temirmalik Rustam o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti aniq fanlar kafedrasи
o‘qituvchisi

Email: Temur.Sharopov@mail.ru

Tel: +99897 036 65 66

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi bosqichi haqida fikr yuritilgan bo‘lib, keyingi yillarda ushbu masalada amalga oshirilgan ishlar, imzolangan shartnoma, qaror, farmoyish hamda taraqqiyot strategiyasida ko‘zlangan maqsadlar o‘rganildi hamda taxlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘sish, murojaatnoma, korhona, elektrotexnika, avtomobil sanoati, strategiya, iqtisodiyot.

Annotation: This article reflects on the new stage of development of the national economy, the work done in this matter in the following years, the signed contract, decision, order, and the goals set in the development strategy were studied and analyzed.

Key words: Economic growth, application, enterprise, electrical engineering, automobile industry, strategy, economy.

Hozirgi bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” qonunining 9-moddasiga ko‘ra, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish hisoblanadi. Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ushbu masalaga alohida to‘htalib “Iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarini ko‘paytirish orqali erishiladi”[1] - deb ta’kidlaganlar. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o‘zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni tizimli rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishi - milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarni Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida baholash mumkin. 2022–2026- yillardagi ustuvor vazifa sifatida aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish ko‘zda tutilganligida ham bir alohida ma’no bor desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tgan besh yil, ya’ni 2017–2021- yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish



materiallari sanoati, kimyo va neftkimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi hamda tizimli ishlar amalga oshirildi. Mamlakat faoliyati qaysi sohaga yo‘naltirilganligiga qarab, barqaror rivojlanish u yoki bu tarzda etakchilik qiladi. Mamlakat barqaror rivojlanib, jamiyat taraqqiyoti va gullab-yashnashi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va ish kabi asosiy ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish zarur, chunki agar ijtimoiy qashshoqlik tarqalayotgan bo‘lsa yoki odatiy jarayon bo‘lsa, ko‘zda tutilgan boshqa yo‘nalishlar harakatni rivojlantirish mumkin emas[2].

Respublika milliy iqtisodiyotini ustuvor tarmoqlaridan biri bu investitsiyadir. Ushbu saohada loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi: ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma’naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo‘lib qolganligi; sanoat tarmog‘ida moddiy texnika bazasining o‘ta pastligi va ko‘pgina zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg,,arish bilan iste’mol o‘rtasidagi nisbatning iste’mol tomonga ko‘plab sarflanayotgani va jamg‘arishning investitsiya manbayi sifatida kamayib borayotganligi; O‘zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko‘plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarga aylandi[3]. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan iqtisodiy sahada keying 6 yilda juda katta salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, albatta buning zamirida xalqning manfaatlari yotadi. Muhtaram Prezidentimiz o‘zining “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” deb nomlangan asarida iqtisodiyotga quydagicha ta’rif beradi. “Ochiq aytish kerak: agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo‘lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo‘lsak, chala-chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz shart” yagona yo‘limiz shu. Bu - asosiy qonunimiz talabi. Boshqa yo‘l yo‘q. Biz boshlagan islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz va ular albatta o‘zining ijobjiy natijasini beradi deb ta’kidlab o‘tgan. Bu borada birgina 2018-yil sarxisobida Respublikamizda katta ishlar amalga oshirildi. “Har bir oila tadbirkor”, “Yoshlar kelajagimiz” kabi dasturlarimiz doirasida juda katta ishlar amalga oshirildi halqimizning xususan yoshlарimizning tadbirkorlik tashabbuskorligini qo‘llab quvvatlash ularga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish uchun katta imtiyozlar berildi. bunga misol tariqasida 2018 yil sarxisobi bo‘yicha 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan



ortiq biznes loyixalar amalga oshirildi [4:6]. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishslash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 milliard dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o'z vaqtida amalga oshirish belgilanmoqda[5]. Demak, hozirgi kunda respublikamiz sanoat korxonalarini texnologik yangilash bilan bir qatorda, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish, raqobat muhitini shakllantirishni davom ettirilishini taqozo etmoqda. Bu esa, hozirgi iqtisodiyotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlarining jadallahushi, mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi hamda tovarlar bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida yanada dolzarb masalaga aylanmoqda. Aytish mumkinki, 2017-2021-yillarda sanoatni yuksak darajada rivojlantirish dasturi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil ijrosi barcha tarmoqlar faoliyatida qo'shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashda yangi sahifalar ochmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan "Taraqqiyot strategiyasi"da inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida - 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq ta'minlanishi bugungi kunda butun dunyo amaliyoti uchun maqbul bo'lgan aholini kambag'allikdan chiqarish maqsadida maxallalarda temir daftar tashkil qilindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ularga xizmat qiladigan innovatsiya infratuzilmalarini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining amalga oshirilishi mamlakatimizda import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlar ishlab chiqarish ko'laming asta-sekin kengayishi hamda milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshishiga sharoit yaratmoqda. Bu esa, mamlakatimizda innovatsiya infratuzilmalarini shakllantirish va ularni samarali boshqarishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasidan.
2. [https://www.renewablesverdes.com/uz/barqaror-rivojlanish/#Caracteristicas del desarrollo sostenible.tashrif](https://www.renewablesverdes.com/uz/barqaror-rivojlanish/#Caracteristicas_del_desarrollo_sostenible.tashrif) sanasi. 04.10.2023.
3. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 issue 4 July 2020.
4. III.М.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади 3-том. -Тошкент:. Ўзбекистон, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.